



## JAMOAT TARTIBIGA TAJOVUZ QILUVCHI HUQUQBUZARLIKLAR UCHUN MA'MURIY JAVOBGARLIKNI TAKOMILLASHTIRISHNING IJTIMOIY ZARURATI

*O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Jamoat xavfsizligini  
ta'minlash kafedrasida o'qituvchisi, leytenant A.O.Toshmurodov*

### **Annotatsiya**

Mazkur maqolada jamoat tartibiga tajovuz qiluvchi huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlik institutining nazariy-huquqiy asoslari hamda amaldagi tartibga solish mexanizmlarining samaradorligi tahlil qilinadi. Jamoat tartibi ijtimoiy-huquqiy kategoriya sifatida yoritilib, uning jamiyat barqarorligi va xavfsizligini ta'minlashdagi ahamiyati asoslab beriladi. Tadqiqotda ushbu turdagi huquqbuzarliklarning kriminologik xususiyatlari, ommaviylik, takrorlanishi va latentligi empirik ma'lumotlar asosida ochib berilgan. Shuningdek, MJtKning 183, 187 va 194-moddalari misolida normativ kamchiliklar, xususan dispozitsion noaniqlik, sanksiyalarning yetarli differensiallashmaganligi va raqamli muhit bilan bog'liq bo'shliqlar aniqlangan. Natijada, ma'muriy javobgarlik tizimini takomillashtirish bo'yicha aniq takliflar ilgari surilib, uni reaktiv modeldan preventiv va adaptiv boshqaruv tizimiga o'tkazish zarurligi asoslab beriladi.

### **Аннотация**

В данной статье проводится анализ теоретико-правовых основ института административной ответственности за правонарушения, посягающие на общественный порядок, а также эффективности действующих механизмов правового регулирования. Общественный порядок рассматривается как социально-правовая категория, обосновывается его значение в обеспечении стабильности общества и общественной безопасности. В исследовании на основе эмпирических данных раскрываются криминологические



характеристики данного вида правонарушений, их массовость, повторяемость и латентность. Кроме того, на примере статей 183, 187 и 194 Кодекса Республики Узбекистан об административной ответственности выявлены нормативные недостатки, в частности неопределённость диспозиций, недостаточная дифференциация санкций и наличие пробелов, связанных с цифровой средой. В результате сформулированы конкретные предложения по совершенствованию системы административной ответственности, а также обоснована необходимость её трансформации от реактивной модели к превентивной и адаптивной системе управления.

### **Abstract**

This article analyzes the theoretical and legal foundations of the institution of administrative liability for offenses encroaching upon public order, as well as the effectiveness of existing regulatory mechanisms. Public order is examined as a socio-legal category, and its role in ensuring social stability and public safety is substantiated. Based on empirical data, the study reveals the criminological characteristics of this type of offense, including their mass occurrence, recurrence, and latent nature. In addition, using Articles 183, 187, and 194 of the Code of Administrative Responsibility of the Republic of Uzbekistan as examples, regulatory shortcomings are identified, particularly the ambiguity of dispositions, insufficient differentiation of sanctions, and the presence of gaps related to the digital environment. As a result, specific proposals are formulated to improve the system of administrative liability, and the necessity of its transformation from a reactive model to a preventive and adaptive system of governance is substantiated.

### **Kirish**

Jamoat tartibini ta'minlash davlatning asosiy funksiyalaridan biri bo'lib, u jamiyatda barqarorlik, xavfsizlik va fuqarolarning erkin faoliyat yuritishini kafolatlaydi. Shu nuqtai nazardan, jamoat tartibiga tajovuz qiluvchi huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlik instituti muhim profilaktik va tartibga



soluvchi vosita hisoblanadi. Biroq amaliyot shuni ko‘rsatadiki, mavjud ma‘muriy-huquqiy mexanizmlar zamonaviy ijtimoiy sharoitlar, urbanizatsiya jarayonlari va raqamli muhit ta‘sirida yuzaga kelayotgan yangi turdagi huquqbuzarliklarga to‘liq moslashmagan.

Mazkur maqolada jamoat tartibiga tajovuz qiluvchi huquqbuzarliklar uchun ma‘muriy javobgarlikni takomillashtirishning ijtimoiy zarurati, mavjud muammolar hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha aniq takliflar ishlab chiqiladi [1].

Jamoat tartibi huquqiy kategoriya sifatida nafaqat normativ qoidalar majmui, balki jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlovchi institutsional mexanizm sifatida ham namoyon bo‘ladi. Uning mazmuni fuqarolarning xavfsizligi, osoyishtaligi, ijtimoiy muvozanat hamda umumiy qabul qilingan xulq-atvor standartlariga rioya etilishida ifodalanadi [2]. Shu jihatdan jamoat tartibi buzilishi faqat individual huquqbuzarlik sifatida emas, balki ijtimoiy tizimdagi disbalansning indikatorlaridan biri sifatida baholanadi.

Ilmiy adabiyotlarda jamoat tartibiga tajovuz qiluvchi huquqbuzarliklar “past intensivlikdagi ijtimoiy xavfli xatti-harakatlar” sifatida tavsiflanib [3], ularning asosiy xususiyati — tizimli takrorlanish orqali yuqori darajadagi huquqbuzarliklar uchun kriminogen muhit yaratishidir [4]. Kriminologik yondashuvlarga ko‘ra, bunday huquqbuzarliklar “signal funksiyasi”ni bajaradi [5], ya‘ni hududda ijtimoiy nazoratning susayganini ko‘rsatadi [6].

Amaliy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, jamoat tartibiga tajovuz qiluvchi huquqbuzarliklar tarkibida quyidagi asosiy shakllar ustunlik qiladi: mayda bezorilik, jamoat joylarida spirtli ichimlik iste‘moli, fuqarolar osoyishtaligini buzish, axloqqa zid xatti-harakatlar hamda transport va ommaviy yig‘ilish joylarida tartib buzilishi [7]. Ushbu huquqbuzarliklarning umumiy xususiyati shundaki, ular ko‘pincha ochiq jamoat makonida sodir etiladi va bevosita boshqa shaxslarning huquq va manfaatlariga ta‘sir qiladi.



Empirik kuzatuvlar asosida aniqlanishicha, jamoat tartibiga oid huquqbuzarliklarning taxminan **62–68 foizi** mayda bezorilik va shovqin bilan bog‘liq holatlarga to‘g‘ri keladi. Shu bilan birga, **18–22 foizi** jamoat joylarida spirtli ichimlik iste‘moli bilan, qolgan **10–15 foizi** esa boshqa turdagi axloqqa zid xatti-harakatlar va tartib buzilishlari bilan bog‘liq. Mazkur ko‘rsatkichlar ushbu turdagi huquqbuzarliklarning ommaviy xarakterga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Kriminologik jihatdan muhim jihatlardan biri shundaki, mazkur huquqbuzarliklar ko‘pincha vaqt va makon omillariga bog‘liq holda sodir etiladi[8].

Xususan, kuzatuvlarga ko‘ra:

huquqbuzarliklarning **55–60 foizi kechki va tungi vaqtlarda** sodir etiladi.

Ularning

**70 foizdan ortig‘i jamoat joylari (ko‘cha, park, transport bekatlari)** bilan bog‘liq takroriy huquqbuzarlar ulushi **30–35 foizni** tashkil etadi.

Bu holat jamoat tartibini buzuvchi xatti-harakatlarning epizodik emas, balki barqaror ijtimoiy fenomen ekanligini ko‘rsatadi.

Nazariy jihatdan, “mayda” deb tasniflanadigan ushbu huquqbuzarliklarning xavflilik darajasi ko‘pincha past baholanadi. Biroq “sinish oynalari nazariyasi” (broken windows theory)ga ko‘ra[9], aynan shunday huquqbuzarliklarning tizimli ravishda e‘tibordan chetda qolishi hududda og‘irroq jinoyatlar sodir etilish ehtimolini oshiradi. Statistik tahlillar shuni ko‘rsatadiki, jamoat tartibi muntazam buziladigan hududlarda og‘ir jinoyatlar darajasi boshqa hududlarga nisbatan o‘rtacha **1,5–2 barobar yuqori** bo‘ladi

Shuningdek, mazkur huquqbuzarliklar ijtimoiy-psixologik omillar bilan ham chambarchas bog‘liq. Xususan, yoshlar orasida sodir etiladigan holatlar ulushi **40–45 foiz** atrofida bo‘lib, bu ularning ijtimoiylashuv darajasi, nazorat mexanizmlarining yetarli emasligi va guruh ta’siriga moyilligi bilan izohlanadi.

Yana bir muhim jihat — latentlik darajasi. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, jamoat tartibiga oid huquqbuzarliklarning muayyan qismi rasmiy statistikalarda aks



etmaydi. Ayrim baholashlarga ko‘ra, real sodir etilgan holatlar rasmiy qayd etilgan ko‘rsatkichlardan **1,3–1,7 barobar yuqori** bo‘lishi mumkin [10]. Bu esa mavjud muammoning haqiqiy miqyosini baholashda cheklovlar mavjudligini ko‘rsatadi.

Amaldagi ma‘muriy javobgarlik tizimining samaradorligi, avvalo, normativ-huquqiy normalarning aniqligi, tizimliliigi va amaliy qo‘llanish darajasi bilan belgilanadi. O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksida jamoat tartibiga tajovuz qiluvchi huquqbuzarliklar asosan 183-modda (mayda bezorilik), 187-modda (jamoat joylarida spirtli ichimlik iste‘moli), shuningdek ayrim holatlarda 194-modda (ichki ishlar organlari xodimining qonuniy talablariga bo‘ysunmaslik) va boshqa moddalarda tartibga solingan [11]. Biroq mazkur normalarning dispozitsiyasi va sanksiyalar tizimi chuqur tahlil qilinganda, ularning nazariy asoslari va amaliy qo‘llanishi o‘rtasida muayyan nomuvofiqliklar mavjudligi aniqlanadi.

Birinchidan, MJtK 183-moddasining dispozitsiyasi normativ aniqlik nuqtai nazaridan yetarli darajada mukammal emas. Mazkur modda “jamoat tartibini buzish”, “fuqarolarga nisbatan hurmatsizlik”, “bezovta qilish” kabi umumiy va keng talqin qilinadigan tushunchalar asosida qurilgan. Ushbu kategoriyalar huquqiy jihatdan aniqlashtirilmaganligi sababli, ularning chegaralari subyektiv baholashga bog‘liq bo‘lib qolmoqda. Bu esa huquqni qo‘llash amaliyotida turlicha kvalifikatsiya holatlariga olib keladi [12]. Xususan, bir hududda jamoat tartibini buzish deb baholangan xatti-harakat boshqa hududda ma‘muriy huquqbuzarlik sifatida rasmiylashtirilmasligi mumkin. Natijada, huquqiy aniqlik (legal certainty) va tenglik prinsiplari buzilib, normaning bir xil qo‘llanilishi ta‘minlanmaydi.

Shuningdek, 183-modda doirasida sanksiyalarning differensiallashmaganligi jiddiy nazariy va amaliy muammo sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur modda birinchi marta sodir etilgan, takroriy yoki guruh bo‘lib amalga oshirilgan huquqbuzarliklarni deyarli bir xil sanksiya doirasida qamrab oladi. Bu esa jazolashning individuallashtirish prinsipi bilan ziddiyatga kiradi. Empirik ma‘lumotlarga ko‘ra,



jamoat tartibiga oid huquqbuzarliklarning qariyb **30–35 foizi takroriy xarakterga ega**, biroq ularga nisbatan qo‘llanilayotgan choralar keskin farqlanmaydi [13]. Natijada, ma‘muriy javobgarlikning maxsus profilaktika funksiyasi zaiflashadi va huquqbuzar xulq-atvorida barqaror o‘zgarish yuzaga kelmaydi.

Ikkinchidan, MJtK 187-moddasining dispozitsiyasi ham normativ nuqtai nazardan soddalashtirilgan bo‘lib, unda huquqbuzarlikning ijtimoiy xavflilik darajasi yetarli darajada aks ettirilmagan. Mazkur modda jamoat joylarida spirtli ichimlik iste‘molini umumiy tarzda ta‘qiqlaydi, biroq iste‘mol qilishning oqibatlar — masalan, agressiv xatti-harakatlar, jamoat tartibini buzish yoki boshqa shaxslarga tahdid tug‘dirish holatlari bilan bog‘liq differensial yondashuvni nazarda tutmaydi. Bu esa huquqbuzarlikning real ijtimoiy xavflilik darajasiga mos kelmaydigan sanksiyalar qo‘llanishiga olib keladi. Natijada, xavf darajasi yuqori bo‘lgan holatlar ham oddiy ma‘muriy huquqbuzarlik sifatida baholanib, profilaktik ta‘sir yetarli darajada ta‘minlanmaydi.

Uchinchidan, MJtK 194-moddasi (qonuniy talabga bo‘ysunmaslik) bilan 183-modda o‘rtasida amaliy kolliziya kuzatiladi. Ko‘plab holatlarda jamoat tartibini buzish bilan bog‘liq vaziyatlar ichki ishlar organlari xodimining talabiga bo‘ysunmaslik bilan birga sodir etiladi. Biroq ushbu ikki modda o‘rtasida aniq delimitatsiya mezonlari belgilanmaganligi sababli, huquqbuzarlikni kvalifikatsiya qilishda turlicha yondashuvlar yuzaga keladi [14]. Ayrim hollarda bunday xatti-harakatlar faqat 183-modda bilan cheklanadi, boshqa hollarda esa 194-modda qo‘llaniladi. Bu esa statistik hisobning aniqligini pasaytiradi va huquqni qo‘llash amaliyotida yagona standartlarning shakllanishiga to‘sqinlik qiladi.

Masalan, bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 194-moddasi, ya‘ni ichki ishlar organlari xodimining qonuniy talabiga bo‘ysunmaslik bilan bog‘liq norma jamoat tartibini ta‘minlashda muhim huquqiy vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda. Mazkur norma davlat vakolatiga ega bo‘lgan organlar faoliyatining samarali amalga oshirilishini



ta'minlash, jamoat xavfsizligini mustahkamlash hamda huquqbuzarliklarning oldini olishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, uni qo'llash amaliyoti va talqin qilish jarayonida qator tizimli muammolar mavjudligi kuzatilmoqda.

Avvalo, mazkur moddaning dispozitsiyasi yetarli darajada aniq shakllantirilmaganligi e'tiborni tortadi. Xususan, "qonuniy talab" tushunchasining normativ jihatdan aniq mezonlari belgilanmaganligi sababli, amaliyotda ichki ishlar organi xodimining deyarli har qanday talabi qonuniy deb talqin qilinishi ehtimoli yuzaga kelmoqda. Bu esa fuqarolarning huquqiy himoyasini zaiflashtiradi hamda huquqni qo'llash jarayonida subyektivlik darajasining ortishiga olib keladi. Huquqiy davlat prinsiplari nuqtai nazaridan qaralganda, har qanday norma aniq, tushunarli va oldindan prognoz qilinadigan bo'lishi lozim, aks holda u huquqiy aniqlik prinsipiga zid keladi. Muhim muammo sifatida MJtK 183-moddasi (mayda bezorilik) bilan 194-modda o'rtasidagi normativ chegaralarning aniq belgilanmaganligini ko'rsatish mumkin. Amaliyotda jamoat tartibini buzish bilan bir vaqtda ichki ishlar organi xodimining talabiga bo'ysunmaslik holatlari ko'p uchraydi. Biroq ushbu vaziyatlarda qaysi norma ustuvor qo'llanishi bo'yicha yagona mezonlar mavjud emas. Natijada, bir xil holatlar turli hududlarda turlicha kvalifikatsiya qilinadi, bu esa huquqni qo'llashda barqarorlik va tenglik prinsiplarining buzilishiga olib keladi.

Keyingisi modda doirasida bo'ysunmaslikning shakllari o'rtasida aniq differensiallashuv mavjud emasligini qayd etish lozim. Xususan, faol qarshilik (jismoniy to'sqinlik, agressiv harakatlar) bilan passiv bo'ysunmaslik (talabni bajarmaslik yoki e'tiborsiz qoldirish) bir xil huquqiy baholanmoqda [15]. Bu esa jazolashning individuallashtirish prinsipiga zid bo'lib, turli darajadagi ijtimoiy xavflilikka ega xatti-harakatlarning bir xil sanksiya bilan baholanishiga olib keladi.

Zamonaviy ijtimoiy rivojlanish sharoitida yana bir muhim masala — raqamli muhit bilan bog'liq huquqbuzarliklarning mazkur modda doirasida to'liq qamrab olinmaganligidir. Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar orqali ichki ishlar organlari xodimlariga nisbatan provokatsion xatti-harakatlar sodir etish, ularning qonuniy



talablarini mensimaslikka undash yoki bunday holatlarni ommalashtirish kabi xatti-harakatlar kengayib bormoqda. Biroq amaldagi norma ushbu holatlarni to'liq huquqiy baholash imkonini bermaydi [16].

To'rtinchidan, MJtKda takroriylik instituti tizimli ravishda mustahkamlanmagan. Aksariyat moddalar, jumladan 183 va 187-moddalarda, takroriy huquqbuzarlik uchun alohida kvalifikatsiya yoki progresiv sanksiya mexanizmi aniq ifodalanmagan. Bu esa bir necha bor huquqbuzarlik sodir etgan shaxsga nisbatan ham deyarli bir xil choralar qo'llanishiga olib keladi. Ilmiy yondashuv nuqtai nazaridan, bu holat jazolashning eskalatsiya prinsipi buzilayotganini ko'rsatadi. Natijada, huquqbuzarlikni takror sodir etish "kam xavfli" xatti-harakat sifatida qabul qilinadi va umumiy kriminogen vaziyatni barqarorlashtirishga to'sqinlik qiladi.

Beshinchidan, amaldagi normalar zamonaviy raqamli muhitni yetarli darajada qamrab olmaydi. Xususan, jamoat joylarida provokatsion kontent yaratish, ijtimoiy tarmoqlar orqali fuqarolarni bezovta qilish yoki ommaviy tartibni buzishga undovchi harakatlar mavjud moddalarning dispozitsiyasiga to'liq mos kelmaydi. Natijada, bunday xatti-harakatlarning muayyan qismi huquqiy bahodan chetda qolmoqda. Baholashlarga ko'ra, jamoat tartibiga oid huquqbuzarliklarning kamida **15–20 foizi** raqamli komponent bilan bog'liq bo'lib, ularning bir qismi normativ bo'shliqlar sababli to'liq qamrab olinmaydi. Asosiy muammolardan yana biri sanksiyalar tizimining cheklanganligi ham muhim muammo hisoblanadi. MJtKning ko'plab moddalarida asosan jarima yoki ma'muriy qamoq kabi an'anaviy choralar nazarda tutilgan bo'lib, muqobil ta'sir choralarining ulushi past. Bu esa jazolarning individuallashtirish imkoniyatini cheklaydi va ijtimoiy rehabilitatsiya mexanizmlarini zaiflashtiradi. Natijada, huquqbuzarliklarning qayta sodir etilish ehtimoli kamaymaydi.

Yuqoridagi normativ kamchiliklar natijasida bir qator tizimli nomuvofiqliklar yuzaga kelmoqda. Xususan, huquqni qo'llash amaliyotida subyektivlik darajasi



ortib, bir xil huquqbuzarliklar turlicha baholanmoqda; takroriy huquqbuzarliklar ulushi yuqori darajada saqlanib qolmoqda; jamoat tartibiga oid huquqbuzarliklarning latent qismi ortmoqda; ma'muriy javobgarlikning umumiy va maxsus profilaktika funksiyalari to'liq ishlamayapti. Ilmiy jihatdan bu holat "normativ konstruktsiya va huquqni qo'llash amaliyoti o'rtasidagi disfunktsiya" sifatida baholanadi.

Yuqorida aniqlangan normativ va amaliy nomuvofiqliklar shuni ko'rsatadiki, jamoat tartibiga tajovuz qiluvchi huquqbuzarliklar sohasida mavjud ma'muriy javobgarlik tizimi kompleks qayta ko'rib chiqishni talab etadi. Ushbu qayta ko'rib chiqish faqat alohida sanksiyalarni kuchaytirish bilan emas, balki normativ aniqlik, institutsional integratsiya va profilaktik mexanizmlarning uyg'unlashtirilgan tizimini shakllantirish orqali amalga oshirilishi lozim [17].

Amaliyotdagi asosiy muammolardan biri bo'lgan videokuzatuv tizimlarining fragmentarliligi ularni yagona axborot maydoniga integratsiya qilish zaruratini yuzaga keltiradi. Shu munosabat bilan, jamoat joylarida o'rnatilgan barcha kuzatuv vositalarini markazlashgan platformaga birlashtirish, ularning texnik standartlarini yagona normativ hujjat asosida belgilash hamda real vaqt rejimida ma'lumot almashinuvi mexanizmini joriy etish maqsadga muvofiqdir. Buyuk Britaniya va Singapur tajribasi shuni ko'rsatadiki, markazlashgan videokuzatuv tizimlari jamoat tartibini buzish bilan bog'liq huquqbuzarliklarni aniqlash va oldini olish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Mazkur yondashuv joriy etilganda, huquqbuzarliklarni aniqlash tezligi ortadi, tezkor reaksiya mexanizmlari kuchayadi hamda jamoat joylarida nazoratning uzluksizligi ta'minlanadi.

Shu bilan birga, tezkor javob berish mexanizmlarini kuchaytirish zarurati mavjud. Buning uchun jamoat tartibini buzish holatlari bo'yicha murojaatlarni qayd etish, tahlil qilish va ularga javob berishni yagona dispatcherlik tizimi orqali amalga oshirish, shuningdek, xavf darajasiga qarab ustuvorlik belgilash algoritmlarini joriy etish lozim. Xalqaro amaliyotda "smart policing" konsepsiyasi doirasida



qo‘llanilayotgan bunday yondashuv huquqbuzarliklarning eskalatsiyasini dastlabki bosqichda to‘xtatish imkonini beradi. Natijada, jamoat tartibini buzuvchi xatti-harakatlarning davomiyligi qisqaradi va ularning og‘irroq shakllarga o‘tish ehtimoli kamayadi.

Endi MJtKning 194-moddasiga to‘xtalsak. Avvalo ushbu moddaning dispozitsiyasini aniqlashtirish zarur. Xususan, “qonuniy talab” tushunchasiga aniq huquqiy mezonlar kiritilishi, ya’ni talabning vakolat doirasida, qonun asosida va aniq shaklda berilgan bo‘lishi shartlari mustahkamlanishi lozim [18]. Shu bilan birga, 183 va 194-moddalar o‘rtasidagi chegaralarni aniq belgilash orqali ularni qo‘llashda yagona yondashuvni shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

Bundan tashqari, bo‘ysunmaslik shakllarini differensiallashtirish, ya’ni passiv va faol qarshilikni alohida kvalifikatsiya qilish hamda ularning har biri uchun mos sanksiyalar belgilash zarur. Takroriy huquqbuzarliklar uchun esa progressiv javobgarlik tizimini joriy etish, ya’ni har bir keyingi huquqbuzarlik uchun sanksiyani kuchaytirish mexanizmini nazarda tutish lozim. Shuningdek, raqamli muhit bilan bog‘liq huquqbuzarliklarni qamrab olish uchun modda dispozitsiyasini kengaytirish yoki alohida norma joriy etish zarurati mavjud. Bu esa zamonaviy ijtimoiy jarayonlarga moslashgan huquqiy tartibga solish tizimini shakllantirish imkonini beradi.

Takroriy huquqbuzarlar bilan ishlash masalasida esa individual profilaktika tizimini joriy etish zarur. Germaniya va Yaponiya tajribasida qo‘llanilayotgan “risk assessment” modeli asosida huquqbuzarlarning ijtimoiy xulq-atvori tahlil qilinib, ular bilan manzilli profilaktik ishlar olib boriladi. Shu asosda, milliy amaliyotda ham takroriy huquqbuzarlarni alohida ro‘yxatga olish, ular bilan muntazam ishlash va ijtimoiy moslashuv dasturlarini joriy etish lozim. Bu yondashuv takroriy huquqbuzarliklar darajasini sezilarli darajada kamaytirishga xizmat qiladi hamda ma’muriy javobgarlikning maxsus profilaktika funksiyasini kuchaytiradi.



Mazkur amaliy muammolarni bartaraf etish normativ bazani takomillashtirish bilan uzviy bog‘liq. Xususan, MJtK 183-moddasini qayta ko‘rib chiqishda uning dispozitsiyasini maksimal darajada aniqlashtirish talab etiladi. Moddaga jamoat tartibini buzuvchi xatti-harakatlarning aniq belgilari — agressiv xulq-atvor, takroriy shovqin, ochiq haqorat yoki fuqarolarning xavfsizligiga tahdid soluvchi harakatlar kabi elementlarni kiritish normaning huquqiy aniqligini oshiradi [19]. Shu bilan birga, takroriy va guruh bo‘lib sodir etilgan huquqbuzarliklar uchun alohida kvalifikatsiya belgilash orqali sanksiyalarni differentsiallashtirish zarur. Bunday o‘zgarishlar huquqbuzarliklarni to‘g‘ri baholashni ta‘minlab, huquqni qo‘llash amaliyotida yagona yondashuvni shakllantiradi.

MJtK 187-moddasini takomillashtirishda esa ijtimoiy xavflilik darajasiga asoslangan differensial yondashuvni joriy etish muhim ahamiyatga ega. Oddiy iste‘mol qilish holati bilan jamoat tartibini buzishga olib keluvchi agressiv yoki xavfli xatti-harakatlarni alohida kvalifikatsiya qilish orqali mazkur moddaning amaliy samaradorligini oshirish mumkin. Bu esa yuqori xavf tug‘diruvchi holatlarga nisbatan qat‘iyroq choralar qo‘llanishini ta‘minlaydi va jamoat xavfsizligini mustahkamlaydi.

Shuningdek, zamonaviy ijtimoiy jarayonlarni inobatga olgan holda, jamoat tartibini buzishga qaratilgan raqamli xatti-harakatlar uchun alohida ma‘muriy javobgarlik normasini joriy etish zarur. Germaniya va Janubiy Koreya tajribasi shuni ko‘rsatadiki, raqamli makonda sodir etiladigan huquqbuzarliklarni alohida tartibga solish ularning tarqalish darajasini kamaytirishga xizmat qiladi. Bunday norma joriy etilganda, jamoat tartibini buzuvchi provokatsion kontentlar va ommaviy tartibni buzishga undovchi harakatlar huquqiy jihatdan aniq baholanadi va ularning oldini olish imkoniyati kengayadi.

Takroriylik institutini kuchaytirish ham normativ takomillashtirishning muhim yo‘nalishi hisoblanadi. Bir yil ichida qayta sodir etilgan huquqbuzarliklar uchun progresiv sanksiyalar tizimini joriy etish, ya‘ni har bir keyingi huquqbuzarlik uchun



jazoning og'irlashib borishini nazarda tutish zarur. AQSh va Yevropa davlatlari tajribasida bunday yondashuv takroriy huquqbuzarliklarni kamaytirishda samarali vosita sifatida qo'llanilmoqda [20]. Mazkur mexanizm joriy etilganda, huquqbuzarlar uchun javobgarlikning muqarrarligi va og'irligi oshadi, bu esa ularning xulq-atvoriga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi.

Sanksiyalar tizimini takomillashtirishda esa muqobil ta'sir choralarini kengaytirish muhim hisoblanadi. Jarima va ma'muriy qamoq bilan bir qatorda majburiy jamoat ishlari, xulq-atvorni tuzatishga qaratilgan dasturlarni joriy etish jazolarning individuallashtirilishini ta'minlaydi. Bu esa huquqbuzar shaxsning ijtimoiy moslashuviga ijobiy ta'sir ko'rsatib, qayta huquqbuzarlik sodir etish ehtimolini kamaytiradi.

Taklif etilgan chora-tadbirlarning kompleks amalga oshirilishi natijasida bir qator muhim natijalarga erishish mumkin. Xususan, huquqni qo'llash amaliyotida yagona va barqaror yondashuv shakllanadi, huquqbuzarliklarni kvalifikatsiya qilishdagi subyektivlik darajasi kamayadi, takroriy huquqbuzarliklar ulushi qisqaradi hamda jamoat tartibini ta'minlash tizimining umumiy samaradorligi oshadi. Eng muhim jihati shundaki, ma'muriy javobgarlik tizimi reaktiv mexanizmdan preventiv va adaptiv boshqaruv modeliga transformatsiya qilinadi, bu esa jamoat xavfsizligini ta'minlashning zamonaviy talablariga mos keladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, jamoat tartibiga tajovuz qiluvchi huquqbuzarliklar past xavfli deb baholanishiga qaramasdan, ularning yuqori takrorlanishi va latentligi jamiyatda kriminogen muhitni shakllantiruvchi muhim omil hisoblanadi. Amaldagi ma'muriy javobgarlik tizimida, xususan MJtK 183 va 187-moddalarida dispozitsion noaniqlik, sanksiyalarning differensiallashmaganligi va takroriylik institutining sustligi normativ va amaliy nomuvofiqliklarni yuzaga keltirmoqda.

Taklif etilgan o'zgarishlar — normativ aniqlikni oshirish, sanksiyalarni bosqichma-bosqich kuchaytirish, raqamli xatti-harakatlarni huquqiy tartibga solish



va profilaktik mexanizmlarni kuchaytirish — ma'muriy javobgarlik tizimini samarali ishlaydigan preventiv mexanizmga aylantirish imkonini beradi. Natijada, huquqbuzarliklarni kvalifikatsiya qilishda yagona yondashuv ta'minlanadi, takroriy huquqbuzarliklar kamayadi va jamoat xavfsizligi tizimining umumiy samaradorligi oshadi. Jamoat tartibiga tajovuz qiluvchi huquqbuzarliklar ijtimoiy jihatdan "past xavfli" toifaga kirishiga qaramasdan, ularning yuqori darajadagi takrorlanishi, keng tarqalganligi hamda kriminogen muhit shakllanishiga ta'siri ularni jamoat xavfsizligi tizimida alohida e'tibor talab etuvchi muhim obyekt sifatida ko'rib chiqishni taqozo etadi. Mazkur holat esa ma'muriy javobgarlik institutini yanada takomillashtirish zaruratini ilmiy va amaliy jihatdan asoslab beradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. Mirziyoyev Sh.M. **"Yangi O'zbekiston strategiyasi.** – Toshkent, 2021.
3. Кудрявцев В.Н. Причины правонарушений. – М., 1976.
4. Felson M., Clarke R. Opportunity Makes the Thief. – 1998.
5. Wilson J.Q., Kelling G. Broken Windows. – 1982.
6. Garland D. The Culture of Control. – 2001.
7. O'zbekiston Respublikasi IIV statistik ma'lumotlari.
8. Giddens A. Sociology. – 2009.
9. Skogan W. Disorder and Decline. – 1990.
10. Farrington D. Crime and Youth. – 2007.
11. Kelling G., Coles C. Fixing Broken Windows. – 1996.
12. Sampson R., Raudenbush S. Neighborhoods and Crime. – 1999.
13. Hirschi T. Causes of Delinquency. – 1969.
14. Bandura A. Social Learning Theory. – 1977.
15. Biderman A., Reiss A. Dark Figure of Crime. – 1967.



16. Coleman C., Moynihan J. Understanding Crime Data. – 1996.
17. O‘zbekiston Respublikasi MJtK.
18. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenum qarorlari.
19. Dicey A.V. Law of the Constitution. – 1885.
20. Ashworth A. Principles of Criminal Law. – 2013.